O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 1930

«TASDIQLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor
__________ K.A.Samiyev
«____» __________ 2025y.

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

# DASTURI

**Buxoro-2025**

Ushbu dastur Buxoro davlat universitetining "Iqtisodiyot" kafedrasining 2025 yil 18 oktyabrdagi №_9___ sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

**Tuzuvchilar:**

1. A.J.Abdulloyev – Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, professor.
2. D.Sh. Yavmutov – Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori,

**Taqrizchilar:**

1. G.R. Xidirova – Buxoro davlat universiteti "Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.
2. F.M.Raxmatullayeva – Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsent iqtisod fanlari doktori.

Dastur Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan ("29 10 2025yil 3 -sonli majlis bayoni).

## KIRISH

Jamiyatda sodir bo'layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga, xususan, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limga boshqacha yondashishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy amalga oshirish vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma'naviy-ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlari hamda ta'limning jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashdir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bilan bir qatorda, so'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lim va ilm-fanga oid keng ko'lamli islohotlari o'zining natijasini bermasdan qolmayapti.

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko'tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yilda chop etilgan «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli kitobida xalqimizning ishonchi va orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish alohida belgilab berilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda har bir mintaqa iqtisodiyotini o'rganish, mintaqaga tegishli iqtisodiyotning xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy holatini chuqurroq anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyotni o'rganishdan asosiy maqsad mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy va uslubiy asoslari, bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish qonuniyatlari, respublika mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish va hududiy dasturlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslari haqida bilim berishdan iborat.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar mintaqaviy iqtisodiyot sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holatidan va chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotidan kelib chiqadi.

Dasturda qo'yilgan mavzular 08.00.12 - "Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga da'vogarlarning respublikamiz hayotida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning hududiy masalalarini tahlil qilish va baholash, hududiy boshqaruv tizimini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab qiladi.

Mazkur masalalar bo'yicha nazariy muammolar fan doktorligiga da'vogarlarning shaxsiy qarashlarini shakllanishini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Dastur 08.00.15 -"Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu dastur 08.00.12 - "Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga talabgor katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar instituti uchun mo'ljallangan.

### Dasturning maqsadi va vazifalari

«Mintaqa» tushunchasi, «hudud», «iqtisodiy hudud», «iqtisodiy hudud rivojlanishi», «mintaqa», «iqtisodiy rayon», «iqtisodiy rayonning barqaror rivojlanishi» atamalarining

mohiyati. Mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli, mintaqa - mamlakat yagona xalq xo‘jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi, hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, uzluksiz taraqqiyotni ta’minlab beruvchi ichki va tashki omillar. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining fanlar tizimida tutgan o‘rni. Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida, hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalar, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalari. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullari. Induktsiya, deduktsiya, ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, taqqoslash.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari va tamoyillari**

Ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy shakllari. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy va hududiy tashkil etilishi. Mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyalari. I.Tyunenning «Qishloq xo‘jalik standarti» nazariyasi, A.Veberning «Sanoat shtandortlari” nazariyasi, A.Lyosh va U.Ayzardlarning «Joylashtirish” nazariyalari, F.Perruning «O‘sish kutblari va rivojlanish markazi» nazariyasi, V. Kristallerning «Markaziy o‘rin» nazariyasi. Ma’muriy-hududiy birlik, siyosiy-ma’muriy birlik. Iqtisodiy rayonlashtirish printsiplari, rayon hosil qiluvchi faktorlar. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va tarixiy, demografik, milliy, diniy, ekologik, tabiiy-resurs xususiyatlari

**Mintaqalar rivojlanishining istiqbolini asoslash**

Iqtisodiy o‘sishning mintaqaviy omillari va ularni hududlar xusuiyatini e`tiborga olgan holda aniqlashtirish. Mintaqani istiqbol uchun samarali ixtisoslashuvini asoslash. Mintaqaning tarmoq siyosati uchun ustuvor yo‘nalishlarni asoslash.

**O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi va ularning mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari**

Ma’muriy-hududiy birliklarning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. Davlat tuzilishi va uning shakllari, oddiy hamda murakkab davlat. Ma’muriy- hududiy bo‘linish, tuman, viloyat, kanton. Davlat suvereniteti, yagona oliy organlar tizimi va yagona qonunchilik tizimi. Markazlashgan va markazlashmagan unitar davlat. Mamlakatda ma’muriy hududiy bo`linish masalalarini huquqiy asoslari. Aholi punktlariga shahar maqomini berishning qonuniy masalalari va shahar aglomeratsiyasi.

**Mintaqalar tabiiy-resurs salohiyati va ularning hududiy taraqqiyotda tutgan o‘rni**

Tabiiy resurs, tabiiy sharoit, tabiiy boylik, foydali qazilma tushunchalari. Tabiiy resurs salohiyati va uning iqtisodiy mohiyati. Tabiiy resurslar klassifikatsiyasi. O‘zbekistonning mineral-xom ashyo resurslari va ularning hududiy joylashuvi. Mamalakatning mineral- xom ashyo resurslariga bo‘lgan ehtiyoji. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish. Respublikaning tayyorlab ko‘yilgan zahiralar va umumiy zahira zapasi. O‘zbekistonda tasdiqlangan zahiralar va istiqbolli konlar. Mineral-xom ashyo resurslari ichki va tashqi bozorning iste’mol ob’ekti

**Mintaqa iqtisodiyotini ixtisoslashuvi va uni kompleks rivojlantirish**

Sanoat ishlab chiqarishining mohiyati. Sanoatning shakllanish bosqichlari. Mintaqaviy sanoatning tarmoq va hududiy tarkibi. Sanoatning texnologik tarkibi. O‘zbekiston Respublikasi hududdari sanoatining o‘ziga xos xususiyatlari. Sanoat kompleksining industrial qiyofasi. Mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishining YaHMdagi ulushi va undagi o‘zgarishlar. YaHM tarkibidagi sanoatning ulushi bo‘yicha mintaqalar tabaqalanishi. Qishloq xo‘jaligi va uning tarmoq tarkibi. Tabiiy-iqlim sharoitining tutgan o‘rni. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishining hududiy xusuiyatlari va ixtisoslashuvi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iste’mol bozoridagi o`rni

**Hududlarning iqtisodiy salohiyati va barqaror iqtisodiy o‘sish**

Hududiy iqtisodiy salohiyat tarkibi va uning tahlil qilish uslublari. Hududiy bozorlarning shakllanishi va ularning o‘zaro aloqasi. Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy yo‘nalishlari. Hududiy barqaror o‘sishning mohiyati va tushnchasi. Hududiy barqaror o‘sishning baholash indikatorlari. Hududlarda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.

**Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning xorij tajribasi**

Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning mohiyati va xususiyatlari. Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning institutsional va huquqiy asoslari. Mintaqaviy rivojlanish dasturlari. Miitaqa iqtisodiyotini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari. Maxsus iqtisodiy hududlar va klaster mexannzmi. Mintaqaviy rivojlanish muammolari va tabaqalanish. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish. Hududlarning ijtimoiy-demografik xusuiyatlari. Aholi manzilgohlarini rejalashtirish va urbanizatsiya.

**Ishlab chiqarish va axborot kommunikatsiya infratuzilmasi rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari**

Axborot kommunikatsiya infratuzilmasi tushinchasi va uning mazmun mohiyati. Infratuzilma va uning shakllari. Yo‘l-transport kommunikatsiyalari va uning tarkibiy tuzilmasi. O‘zbekiston transport tizimi va uning rivojlanish xususiyatlari. Transport kommunikatsiya tizimlarining rivojlantirishda xalqaro hamkorlik. Transport tizimining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar. Logistika xizmatlarini takomillashtirish va xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtirish. Transport sohasida yagona davlat siyosati. Trasport to‘rini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari. O‘zbekistonning xalqaro ekspeditorlar uyushmasi federatsiyasi, ESKATO, TRASEKA va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar a’zoligi. Yuqori texnologik tepekommunikatsiya tarmogini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari.

## Mintaqalar aholisi va mehnat resurslari

Aholining tabiiy o'sishning asosiy omillari. Aholining o'sish dinamikasi va demografik tendentsiyalar. Mintaqada mehnat bozori. Mehnat bozorini tartibga solishning xududiy asoslari, aholi bandligi va uni takomillashtirish yo'llari. Mintaqada mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari. Xalqaro mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari. Mintaqa iqtisodiyotida mehnat resurslari mobilligi.

## O'zbekistonning respublika, mintaqa, va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash mexanizmi

«Davlat boshqaruvi", «Mintaqaviy boshqaruv" va «Mahalliy boshqaruv» tushinchalarining mazmun mohiyati. O'zbekistonda Respublikasi mintaqa va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni o'zaro manfaatli asosda taqsimlash zarurati. Mahalliy tuzilmalar faoliyatigi muammolar va ularning yechimlari. O'zbekistovda respublika mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash tamoyillari. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish sohasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish strategiyasi. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirish shakllari .

## Mintaqaviy iqtisodiy siyosat

Mintaqaviy siyosat va mintaqaviy iqtisodiy siyosat tushunchalarining mazmun mohiyati. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsad va vazifalari. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish usullari va dastaklari. Mintaqaviy siyosat yo'nalishlari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar va ularni tadbiq etish yo'llari. Ma'muriy-hududiy birliklar doirasida amalga oshirilayotgan mintaqaviy iqtisodiy siyosat. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatda erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'rni. Kichik sanoat zonalari va texnoparklar tashkil etishning me'yoriy-huquqiy va iqtisodiy asoslari. Hududiy moliyaviy vositalarning shakllanish manbalari, mahalliy byudjet, munitsipal mulk hisoblanuvchi korxonalarning moliyaviy resurslari, korxona va tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy va uy-joy-kommunal obektlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lari. Xorijiy mamlakatlarda mintaqaviy siyosatning xususiyatlari. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.

## Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish mexanizmlari

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tartibga solishning maqsadi va vazifalari. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida davlatning mintaqaviy siyosati va hududiy boshqaruv organlari faoliyati. Hududiy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari. Hududlar rivojlanishining asosiy indikatorlari. Hududdagi banddik, ishsizlik, hudud aholi sonidagi bandlik hissasi, mehnat unumdorligi. Hudud aholisining daromadlari. Hudud aholisini turmush darajasi va uni belgilovchi omillar. Ijtimoy infratuzilma. Hudud investitsion jozibadorligi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash

## Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlantirish strategiyalari

Mintaqadagi demografik vaziyat. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'rta-va uzoq muddatli istiqbollari. Ilmiy-texnika yutuqlarining kelajakdagi holati va ularni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyati. Asosiy ishlab chiqarish omillari. Aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabining miqdori va dinamikasi. Aholining tovar va xizmatlarning alohida turlariga bo'lgan talabi. Mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirish. Hududiy innovatsion rivojlanish strategiyalari.

## Mintaqalar raqobatbardoshligi va raqobat ustunligi

Raqobat, raqobatbardoshlik va raqobat muhiti tushunchalari hamda ularning iqtisodiy mohiyati. Mintaqalar raqobatbardoshligini baholash usullari. Raqobatdoshlikning iqtisodiy diagnostika natijalari. Mintaqa darajasida raqobatdoshlikni oshirish jarayonini boshqarish tizimi. Mintaqalarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kontseptsiyalari. Mintaqalar raqobat ustunligi va uni aniqlash yo'llari. Mintaqalar raqobat ustunligining hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni. Hudud raqobat ustunligini belgilovchi omillar. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mazmun, mohiyati va uning rivojlanish xususiyatlari. Mintaqalarning eksport salohiyati. Eksport tarkibi va undagi o'zgarishlar. Tashqi savdo sal'dosi. Mintaqalarda qo'shma korxonalarni rivojlanishi. Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari.

## Hududlar taraqqiyotining ekologik jihatlari va tabiatdan foydalanishning mintaqaviy muammolari

Ekologiya, tabiat, tabiiy resurs, tabiiy sharoit, tabiiy boylik tushunchalarining iqtisodiy mohiyati. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar. Tabiatdan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari. Atrof- muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari. Atmosferani muhofaza qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish. Mintaqalarda atrof muhitni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha hamkorlik. Sanoat markazlaridagi atmosfera ifloslanish indeksi va uning dinamikasi. O'zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo'llari. Stantsionar manbalardan chiqadigan chiqindilar. Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta'siri

## 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish savollari

1. Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida, hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalar, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalari.
2. Mintaqalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli
3. Mineral xom ashyo resurslari tushunchasi va iqtisodiy ahamiyati.
4. Mineral xom ashyo resurslarini hududiy joylashuvi, ularni iqtisodiyotda
5. tutgan o'rni.

6. Mineral xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish.
7. O‘zbekiston Respublikasi mineral resurslarining hozirgi holati. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari.
8. O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy bo‘linishining tarixi va hozirgi holati.
9. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha nazariyalar
10. I.Tyunenning «Qishloq xujalik standarti» nazariyasi
11. A.Veberning sanoat «shtandortlar» nazariyasi
12. A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi
13. U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyasi
14. F.Perruning «O‘sish qutblari va rivojlanish markazi» nazariyasi
15. V.Kristallerning «Markaziy joy» nazariyasi
16. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari:
17. Ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish,
18. Mintaqa xo‘jaligining kompleks rivojlantirish
19. Hududiy mehnat taqsimoti.
20. Mintaqalar aholisi. Mehnat resurslari.
21. Aholining tabiiy o‘sishning asosiy omillari.
22. Aholining o‘sish dinamikasi.
23. O‘zbekiston mintaqalarining demografik holati.
24. Aholi bandligining mintaqaviy xususiyatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
25. Aholi bandligini ta’minlashda aholisi zich joylashgan xorijiy mamlakatlar tajribasi.
26. Mintaqada mehnat bozori.
27. Mehnat bozorini tartibga solishning hududiy asoslari, uni takomillashtirish yo‘llari.
28. Mehnat resurslari balansi.
29. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari.
30. Ishsizlik, uni mintaqalardagi holati.
31. Ishsizlikni kamaytirish yo‘llari.
32. O‘zbekiston sanoatining tarmoqlararo-mintaqaviy tarkibi.
33. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi.
34. Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning shart-sharotlari.
35. Sanoatning hozirgi tashkil etishning zamonaviy shakllari.
36. Hududlarda innovastion siyosat va uni joriy qilish yo‘llari.
37. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarining milliy iqtisodiyotdagi roli.
38. Metallurgiya majmuasi.
39. Kimyo va qurilish materiallari sanoati.
40. Yengil va oziq-ovqat sanoat rivoji.
41. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi.
42. ASK tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish.
43. ASK siyosatdagi ustivorliklar.
44. Respublika qishloq xo‘jaligini isloh qilish jarayoni.
45. Qayta ishlash korxonalari joylashuvi va ixtisosligi.
46. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qishloqdagi mulkdor va tadbirkorlarning ahamiyatini oshirish, fermer xo‘jaliklari rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash.
47. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kommunikatsiya majmuasining ahamiyati.
48. Transport tizimi - temir yo‘l, avtomobil, havo, suv va quvur transporti.
49. O‘zbekistonda transport tizimini isloh qilish muammolari va vazifalari.
50. Kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari.
51. Telekommunikatsiya xizmatlari sohasi.
52. Davlat hokimiyatining turli pog‘onalari o‘rtasidagi vakolatlarni taqsimlash vazifalari va tamoyillari.
53. Boshqaruv organlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash zaruriyati muammolari.
54. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o’rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati.
55. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi o’zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo‘llari.
56. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari.
57. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.
58. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo‘yicha xorijiy tajribalar. AQSH va Buyuk Britaniya tajribasi.
59. Yevropa hamjamiyati mamlakaktlarining mintaqaviy siyosati.
60. O‘zbekistonda mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirilishi.
61. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari.
62. Mintaqalarning moliyaviy mablag‘lari va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati.
63. Mintaqa moliyasi-hududiy hokimlik budjetlarining asosiy moliya manbai.
64. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi.
65. Mahalliy budjet - mahalliy boshqaruv organlarining asosiy moliyaviy manbasi.
66. Mahalliy budjet, uning tushumlari va xarajatlari. Mahalliy soliqlar va ularning yo‘nalishlari.
67. Mol-mulk solig‘i. Mol - mulk solig‘ining mahalliy budjetdagi roli.
68. Budjet jarayoni. Budjetlararo munosabatlar.
69. Mahalliy budjetning respublika budjetidagi ulushi.
70. Mintaqalarga ajratiladigan subvensiyalar. Budjet ta’minoti.
71. Hududiy budjetdan tashqari fondlar, hududiy o‘z-o‘zini moliya bilan ta’minlash, hududlarning moliyaviy resurslari.
72. Hududiy moliyalashtirish bo‘yicha Yaponiya tajribasi.
73. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi.
74. Mintaqalarning eksport salohiyati.
75. Mintaqalarda qo‘shma korxonalarni rivojlanishi.
76. Tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari.
77. Mintaqaning eksport-import balansini tahlili va takomillashtirish yo‘llari.
78. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik.
79. Paxta kompleksining eksport salohiyatini rivojlantirish.
80. Mintaqalarda tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari.
81. Hamkorlikka asoslangan siyosat.
82. Xitoy – strategik sherik va yirik hamkor.
83. Shanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va hamkorlik garovi.
84. O‘zbekiston-Malayziya hamkorligi.
85. Mintaqalarni tartibga solishning maqsadi va vositalari.
86. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nazariy va uslubiy asoslari.

87. Hududiy o'sish nazariyalari, uni tahlil etish masalalari.
88. Hududlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari. Hududiy o'sish nazariyalarini tahlil etish masalalari.
89. Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish yo'llari.
90. O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.
91. Mintaqalar iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investistiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari.
92. Mintaqalarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni kengaytirish yo'llari.
93. O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hududlarning iqtisodiyotiga investistiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari.
94. Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'llari. Kichik biznesning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati.
95. Kichik korxonalar rivojlanishidagi xorijiy tajribalar.
96. Kichik korxonalar samaradorligi.
97. Kichik korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilash.
98. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi.
99. Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini omillari.
100. Ma'muriy islohotlar o'tkazish.
101. Mintaqalarga investistiyalari jalb qilishning asosiy tamoyillari va yo'llari.
102. Mintaqalarni investistion rivojlanish uslubi.
103. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda innovatsion shart sharoitlar.
104. Innovastion rivojlanish asosida tadbirkorlik rivojlantirish yo'llari.
105. Hududlarni innovastion strategiyasini aniqlash uslubi.
106. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning innovatsion shart-sharoitlari.
107. Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari.
108. Atrof - muhitni muhofaza qilish. Atmosferani muhofaza qilish.
109. Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish.
110. O'rmonlarni saqlash yo'llari.
111. Cho'l zonalarini o'zlashtirish, qurg'oqchilikka qarshi kurash.
112. O'zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo'llari.
113. Tog' hududlarini o'zlashtirish va rivojlantirish yo'llari.
114. Atmosfera havosining ifloslanishi.
115. Statsionar manbalardan chiqadigan chiqindilar.
116. Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta'siri.
117. Chegara bo'yi hududlarida atmosfera havosining ifloslanishi.
118. Suv resurslarining holati va ulardan foydalanish

**Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun sinov imtihoning javoblarini baholash umumiy mezonlari**

| Ball | Bilim darajasi |
|---|---|
| 1 | 2 |
| 86-100 | Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa |
| 71-85 | O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa |
| 55-70 | Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa |
| 0-54 | Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni talaba javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa |

**Izoh:** Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari bo'yicha topshiriladigan birinchi fan (mutaxassislik yoki chet tili) umumiy balining 50% dan kam ball to'plagan talabgorlar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi.

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha baholash mezonlari**

| № | Umumiy ball | Tayanch doktoantura (PhD)ga kiruvchining bilim darajasi | Xususiy ball |
|---|---|---|---|
| | | **Savol nazariy bo'lsa** | |
| 1 | 18-28 | Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, demokratik islohotlar va jarayonlarning mazmunan mohiyati to'liq ochib berilgan; | 8-10 |
| | | O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tadbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi; | 6-8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega;<br>Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan. | 4-6<br>0-4 |
| | | | 18-28 |
| 2 | 13-19 | Materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob bergan, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yagan, faktlarga to'g'ri baho bera olgan, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha olgan,<br>Javobda doktorantura (PhD)ga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;<br>Ijodiy yondoshuv mavjud;<br>Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega. | 6-8<br>5-6<br>2-4<br>0-1 |
| | | | 13-19 |
| 3 | 4-8 | Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan;<br>Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatiladi;<br>Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan;<br>Tasavvurga ega, lekin tahlil yo'q. | 2-3<br>1-2<br>1-2<br>0-1 |
| | | | 4-8 |
| 4 | 0-3 | Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas;<br>Umuman javob yozilmagan;<br>Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan;<br>O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan | 0-3 |
| | | **Savol amaliy (masala yechish)bo'lsa** | |
| 1 | 14-18 | Masalani yechishda ilmiy - ijodiy yondoshgan;<br>Amaliy topshiriq tahlili va ularning amaliyotga tadbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr va | 5-6 |
| | | mulohazalar mavjud, amaliy topshiriq to'liq bajarilgan;<br>Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega;<br>Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan; | 5-5<br>4-5<br>0-2 |
| | | | 14-18 |
| 2 | 9-13 | Javob to'g'ri yozilgan, ammo noaniqliklar, hisob-kitoblarda chalkashliklarga yo'l qo'yilgan, amaliy topshiriq to'liq bajarilmagan lekin yechimiga ilmiy-ijodiy yondashilgan;<br>Javobda PhD doktoanturaga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;<br>Ijodiy yondoshuv mavjud;<br>Amaliy topshiriqni tahlil qilish qobiliyatiga ega; | 5-6<br>3-4<br>1-2<br>0-1 |
| | | | 9-13 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | 4-8 | Masalaning mohiyati tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan, amaliy topshiriq to'liq bajarilmagan; | 3-4 |
| | | Mushohada bayonida va topshiriqni yechishda fikr tarqoqligi kuzatiladi; | 1-2 |
| | | Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan. Topshiriqni yoritishda va uni amaliy jihatdan asoslashda tasavvurga ega, ammo tahlil va xulosa yo'q; | 1-1 |
| 4 | 0 – 3 | Masalaning qo'yilishi bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob yozilmagan; amaliy topshiriqning yechimi yo'q; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan; O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan. | 0-3 |

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

**1. Asosiy adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-son Qonuni, 17.02.2020 y. https://lex.uz/uz/docs/4737511
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6244-son farmoni, 09.06.2021 y. https://lex.uz/docs/5449564
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-153-son farmoni, 13.06.2022 y. https://lex.uz/uz/docs/6061064
4. Mirziyoev Sh.M. Hududlarda sanoatni rivojlantirish choralari belgilandi. Prezident Sh. Mirziyoev raisligida 2022 yil 7 noyabr kuni mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha videosellektor yig‘ilishi. https://president.uz/uz/lists/view/5672


**2. Qo‘shimcha adabiyotlar**


5. Sanoat korxonalarining 2017-2019 yillardagi investitsion faoliyatini o‘rganish natijalari / O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2 iyul 2021 yil. Toshkent. 22 bet. https://sbu.uz/urload/iblosk/d95/Sanoat-korkhonalarining-investitsion-faolligi.rdf
6. Yusupov A. T. Razvitie i razmeщenie proizvodstva tovarov narodnogo potrebleniya regiona: na materialax promыshlennosti Uzbekistana: dissertatsiya doktora ekonomicheskix nauk: / Akademiya nauk Respubliki Uzbekistan. - Tashkent, 1991. - 298 s
7. Xakimov D.R. Hudud sanoatini diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari. Scientific Progress, Vol. 2, Issue 1, 2021. – 631-638 betlar
8. Sharipov Q.Q. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida ixtisoslashuv jarayoni amal qilishining nazariy asoslari. Iqtisodiyot va ta’lim. № 1. 2020. 18-24 betlar
9. Yakubova E.T. O‘zbekiston yirik shaharlari sanoatining rivojlanishi: xususiyatlari va istiqbollari. Iqtisod va moliya, № 4 (136), 2020. – 140-147 betlar


**3.Internet saytlari**


10. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
11. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
12. www.economics.ru
13. www.chamber.uz
14. www.ziyonet.uz


**Kafedra mudiri :** **A.J.Abdulloyev**